



O'ZBEK TILIDA YUKLAMALAR STILISTIKASI

Nazarov Rasulberdi

talaba

SamDU filologiya fakulteti

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15-June 2023 yil

Ma'qullandi: 18-June 2023 yil

Nashr qilindi: 20-June 2023 yil

KEY WORDS

So'z turkumlariga ajratish masalasi, stilistika, harf, so'roq taajjub, kuchaytiruv-ta'kid, ayiruv-chegaralov, inkor va aniqlov yuklamalari.

ABSTRACT

Maqolada so'zlarni turkumlarga ajratish, tilshunosligimizda yuklamalarning tutgan o'rne, ularning turli ma'no nozikligini aks ettirishi, yuklamalarning stilistikasi haqida qisqacha ma'lumot olishingiz mumkin

O'zbek tilshunosligida so'z va uni turkumlarga tasniflash masalasi o'zining uzoq tarixiy davriga ega. O'zbek tilshunosligida ham XX asrning 50-yillaridan boshlab morfologiya doirasida so'z turkumlari ham alohida tadqiqot obyektiga aylanadi. XX asrning 60-70-yillariga kelib o'zbek tilshunosligida sistem-struktura tilshunoslik g'oyalari keng targ'ib qilina boshlandi. So'zlar morfologik, leksik va sintaktik xususiyatlari asosida mustaqil so'zlar, yordamchi so'zlar va oraliq so'zlar (alohida olingan so'zlar) kabi tiplarga bo'lindi. Mustaqil so'zlar lug'oviy ma'noga ega, ma'lum so'roqqa javob bo'luvchi va gap bo'laklari vazifasida kela oluvchi so'zlar hisoblanasa, yordamchi so'zlar esa bunday xususiyatlarga ega bo'lmagan so'zlardir.

Biz bu o'rinda so'zlarni turkumga ajratish tamoyillari masalasi haqida batafsil to'xtalib o'tmoqchi emasmiz. Chunki mavzu nuqtayi nazardan bu masalalarni tahlil qilishning hojati yo'q deb o'ylaymiz.

So'z turkumlari tadqiqiga oid muhim masalalardan yana biri ularning stilistik tomoni hisoblanadi. Bu sohada ham o'zbek tilshunoslari tomonidan ancha yutuqlar qo'lga kiritilgan, albatta. Stilistik jihatdan barcha so'z turkumlari o'zining alohida uslubiy bo'yog'iga ega bo'lsa-da, bu o'rinda yuklamalarni alohida ta'kidlab o'tish joiz. Aytish mumkinki, o'zbek tilshunosligida yuklamalarning o'rganilishiga oid ko'plab ilmiy tadqiqotlar mavjud. Yuklamalar tilshunoslarning doimiy e'tiboridagi grammatik vositalar hisoblanadi. Bugungi kunda yuklamalar tadqiqi yuzasidan qator ilmiy ish va maqolalar e'lon qilinmoqda. Bu to'g'risida aniq ma'lumotlar prof. Azamat Pardayevning " Til tizimida yordamchi so'zlar" monografiyasida batafsil yoritib berilgan.1

Yuklamalar gap yoki gap bo'lagiga har-xil emotsional-ekspressiv mazmun berish uchun qo'llaniladi. Ularning matndagi vazifasi so'zlovchining matn mazmuniga nisbatan munosabatini bildirish, e'tiborni tortishdan iboratdir. O'zbek tilida yuklama yordamchi so'zlar sirasiga kirsam ham, bog'lovchi va ko'makchi kabi so'zlarni va sodda gaplarni sintaktik

“bog’lash” belgisiga ko’ra boshqa yordamchi so’z turkumlariga nisbatan beqaror va o’zgaruvchan hisoblanadi. Ammo so’zlovchining turli emotsional holatlarini berishda yuklamaning o’rni beqiyosdir. Bu o’rinda yuklama bajaradigan vazifani ko’makchi va bog’lovchi bajara olmaydi. Yordamchi so’zlar ham leksoid shakliga ega. Ammo yuklamalarning ba’zilari leksoid ko’rinishida (ham,xuddi...), ayrimlari affiksoid shaklida (-mi, -chi ...) bo’lsa-da, tilshunos olimlar tomonidan yuklamalarga so’z maqomi berilib, so’z turkumlari sirasiga kiritilgan. Demak, ularning so’z turkumlari sirasiga kiritilishi shartli ravishda deb hisoblash zarur.

Umuman, yuklamalar barcha ilmiy darsliklarda gap yoki gap bo’lagiga so’roq, ta’kid, o’xshatish-qiyoslash, gumon, inkor, ayirish, chegaralash, modal kabi ma’nolarni yuklovchi yordamchi so’z sifatida talqin qilinadi. Bundan tashqari yuklamalar stilistik jihatdan o’zi birikkan so’zga turli xil pragmatik ma’nolarni ham yuklab kelishi mumkin. Hozirgi zamon o’zbek adabiy tilida gap yoki gap bo’lagiga

1. . Пардаев А.Б. Тил тизимида ёрдамчи сўзлар. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2011. 117-134-бетлар beradigan qo’shimcha ma’nolariga ko’ra yordamchilarning bu turini quyidagicha guruhlariga ajratish mumkin:

1. So’roq va taajjub yuklamalari.
2. Kuchaytiruv va ta’kid yuklamalari.
3. Ayiruv va chegaralov yuklamalari.
4. Aniqlov yuklamalari.
5. Gumon yuklamalari.
6. Inkor yuklamalari.2

Albatta, yuklamalarning bu ma’no turlari o’zining stilistik bo’yog’i va pragmatik ma’nolariga ega. Yordamchi so’zlar ichida yuklamalarning boy uslubiy imkoniyati mavjuddir. Yuklamalar, albatta, barcha nutq uslublarida qo’llanilsa-da, lekin badiiy va publitsistik uslublarda ancha faol hisoblanadi. Quyida so’z shakldagi yuklamalarning stilistik xususiyatlarini ko’rib chiqamiz:

O’zbek tilshunosligida so’z shaklidagi yuklamalar sifatida quyidagilarni ko’rsatish mumkin: faqat, yolg’iz, xolos,atiga, axir, hatto, hattoki, nahot, nahotki, xuddi, naq, na... na,ham va boshqalar. Quyida ana shu so’z ko’rinishidagi yuklamalarning boshqa grammatik vositalar bilan ma’nodoshlik xususiyatlarini tahlil qilamiz.

FAQAT. Yuklamaning bu shakli matnda o’zi bog’lanib kelgan so’zlardan oldin qo’llaniladi va chegaralab, ajratib ko’rsatish uchun foydalaniladi. Masalan: Faqat Parcha xolani yomon ko’raman. Parcha xola - devday xotin. Mo’yloviyam bor. Nuqul: «Suyagingni menga ber, men tozalab beray!» deydi. (O’tkir Hoshimov, Ikki eshik orasi, 34-bet) Yuqorida keltirilgan parchada Muzaffar boshqani emas, yolg’iz Parcha xolani yomon ko’rishini chegaralab ko’rsatmoqda.

Faqat yuklamasi –gina, yolg’iz, bor-yo’g’i, bir, xolos kabi yordamchilar bilan sinonimlik hosil qiladi. Masalan: -gina bilan: 1) Agar men yozuvchi bo’lsam, butun umrimni bittagina kitob yozishga sarflardim. (Asqad Muxtor, Chinor, 12-bet); Qiyoslang: Agar men yozuvchi bo’lsam, butun umrimni faqat bitta kitob

2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva S., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o’zbek adabiy tili. – Toshkent, 2009 230-b yozishga sarflardim. 2) yolg’iz bilan: Ra’no faqat Ergash quchog’iga tushganda

sal damini rostlaydi, chunki Ergash bosiq, boshini egib, boshqalardek qizning yuziga tikilmay, unga ozor bermay salmoq bilan aylantiradi. (Asqad Muxtor, Chinor, 423-bet); Qiyoslang: Ra'no yolg'iz Ergash quchog'iga tushganda sal damini rostlaydi, chunki Ergash bosiq, boshini egib, boshqalardek qizning yuziga tikilmay, unga ozor bermay salmoq bilan aylantiradi. 3) bor-yo'g'i so'zi bilan: Orif akaning tongda turib yolg'iz yo'lga chiqqanini hech kim bilmaydi, faqat Mariya Vasilyevna payqagan bo'lsa ehtimol. (Asqad Muxtor, Chinor, 39-bet); Qiyoslang: Orif akaning tongda turib yolg'iz yo'lga chiqqanini hech kim bilmaydi, bor-yo'g'i Mariya Vasilyevna payqagan bo'lsa ehtimol. 4) bir so'zi bilan : Bu gaplarning hammasi to'g'ri. Lekin sen rayonning xo'jalik ishlariga faqat shu nuqtai nazardan yondashsang, biz sendan plan o'rniga gap olamiz chamamda... (Asqad Muxtor, Chinor, 86-bet); Qiyoslang: Bu gaplarning hammasi to'g'ri. Lekin sen rayonning xo'jalik ishlariga bir shu nuqtai nazardan yondashsang, biz sendan plan o'rniga gap olamiz chamamda...

5) xolos bilan: – Onabibi!.. Hech kim javob bermadi. Faqat qo'shnining iti vovilladi. (Asqad Muxtor, Chinor, 99-bet); Qiyoslang: – Onabibi!.. Hech kim javob bermadi. Qo'shnining iti vovilladi, xolos.

Demak faqat yuklamasi –gina, yolg'iz, bor-yo'g'i, bir, xalos kabi yordamchi vositalar bilan sinonimlik hosil qila oladi. Lekin doim deb tushunmaslik zarur. Ushbu birliklar bir-biridan nafaqat jumladagi qo'llanish o'rniga ko'ra, usubiy bo'yog'iga ko'ra, ayirish, chegaralash ma'nosini ifodalashiga ko'ra ham farqlanadi. Bundan tashqari, bu vositalar ma'no nozikligiga ko'ra birini ikkinchisidan farqlash mumkin. Masalan ayirish, chegaralash ma'nosini ifodalovchi bundan vositalar uchun dominant shakl bu faqat yuklamasidir. Faqat yuklamasi barcha uslublarda erkin qo'llanilish xususiyatiga egadir. Bir so'zi ko'proq so'zlashuv uslubida ayirish, chegaralash ma'nosini aks ettirib keladi. Yolg'iz, xolos, bor-yo'g'i so'zlari va -gina affiks yuklamasi ko'proq badiiy va publitsistika uslublar uchun xoslangan.

YOLG'IZ. Yolg'iz so'zi ravish turkumiga mansub mustaqil so'z bo'lib, ba'zi o'rinlarda bu shakl yuklama funksiyasini ham bajarib keladi. Bu o'rinda ularni farqlash lozim. Yolg'iz so'zi yuklama vazifasida kelganda o'zi bog'langan so'zga ayirish, chegaralash ma'nolarini yuklab, shu ma'nodagi yuklamalar bilan ma'nodoshlik hosil qiladi: Endi u yolg'iz tana bo'lib ota bag'rida qolgan edi. Endi bu tana otaniki edi. (Said Ahmad, Ufq, 436-bet) Qiyoslang. Robiya kasal, yolg'iz tashlab ketib bo'lmaydi, - dedi bobom. - To'y nima, g'at-g'ut etadi, bir kunda o'tib ketadi. Qizingni sog'ligini o'yla. (O'tkir Hoshimov, Ikki eshik orasi, 89-bet) Birinchi gapda yolg'iz so'zi hol vazifasida kelgan so'zga ayirish, chegaralash (faqat tana bo'lib) ma'nolarini yuklab kelgan. Ikkinchi gapda bu ma'no aks etmaydi. Shunday ekan, birinchi gapda qo'llanilgan yolg'iz so'zi yuklama, ikkinchi gapda esa ravish. Aslida, yolg'iz so'zining bu boradagi faolligi uni ko'p o'rinlarda yuklamalar sirasiga qarashni odat tusiga kiritgan.

Umuman, faqat, yolg'iz, yakka, yagona, tanho, bir, faqatgina, yolizgina, bir birgina kabi yuklamalari va funksional yuklamalari o'zaro ma'nodoshlik munosabatda bo'lsa-da, ammo ular o'zlarining xususiy farqlanishlariga ega. Ularning ushbu o'ziga xosliklari matndan anglashilib turadi. Shunga kura ular ba'zan bir-birlarining o'rnilarida erkin almasha, ba'zan buning imkoni bo'lmaydi. Ularning matnda tanlab ishlatilishi uslubiy talab bilan amalga oshiriladi.

AXIR. Yuklamaning bu shakli o'zi bog'lanib kelgan sintaktik qismga ko'proq ta'kid, kuchaytirish kabi m'nolarni beradi: Qullar andoq qirilmogda ekanki, shohning o'zi ham tahlikaga tushibdi: uning qullari bu ofatdan qirilib, tugab ketsa, sakkizinchi mo'jizani kim bino

etadi? Shoh shon-shuhrat qozonmoqchi, jahonga nom chiqarmoqchi axir! (Asqad Muxtor, Chinor,35-bet)

Axir yuklamasi matndda boshqa yuklamalar bilan ma'nodoshlik hosil qilmaydi, chunki matndagi ta'kid ma'nosini ifodalashda axir yuklamasi o'ziga xos xususiyatini namoyon qiladi.

XUDDI. Bu yuklama o'zi qo'shilgan so'zga o'xshatish, aniqlab ko'rsatish, chog'ishtirish, qiyoslash va qisman kuchaytirish-ta'kidlash ma'nolarini ham yuklab keladi. Shuning uchun ham ko'plab vositalar bilan ma'nodoshlikni yuzaga keltira oladi. Shuningdek, bu so'zning naq, aynan, go'yo, go'yoki, misoli, bamisoli, misli, bamisli, kabi, singari, yanglig', -dek, -day, -dayin, -larcha, -omuz, -cha, singari, kabi, monand vositalari bilan sinonimlik hosil qiladi. Masalan: 1) g'o'yo(ki) bilan: Tursunboy qimirlamadi. Ikromjon tayoq bilan sakrab-sakrab oldiga kelayotgan edi, Tursunboy yana nari ketdi. Uning bu harakatlari xuddi allaqanday yowoyi hayvonlarni eslatardi. (Said Ahmad, Ufq, 432-bet) ; Qiyoslang: Tursunboy qimirlamadi. Ikromjon tayoq bilan sakrab-sakrab oldiga kelayotgan edi, Tursunboy yana nari ketdi. Uning bu harakatlari go'yo(ki) allaqanday yowoyi hayvonlarni eslatardi. 2) misoli bilan: O'q ovozi xuddi cho'l ustida allaqanday vahimali hayvon o'kirgandek bir necha daqiqa aks-sado berib turdi. (Said Ahmad, Ufq, 434-bet); O'q ovozi missoli cho'l ustida allaqanday vahimali hayvon o'kirgandek bir necha daqiqa aks-sado berib turdi.

Xuddi yuklamasi ko'proq fe'llarga qo'shib, turli ma'nolarni yuklashda qo'llaniladi. Bunda xuddi yuklamasidan so'ng -day, -dek qo'shimchalari ham qo'shib keladi: Qaytib chiqib xuddi orqasidan ergashayotgan mushukka qaragandek beparvo qaradi. (Said Ahmad, Ufq, 434-bet)

XUDDI. Bu yuklamani ba'zi tilshunoslarimiz aniqlov yuklamalari sirasiga kiritishsa, ba'zi tilshunoslar lari o'xshatish-qiyoslash yuklamalari deya nomlashgan. Bu tasniflardagi ikki xillik uning semantik maydoni kengligidan dalolat beradi.³ Shuning uchun xuddi yuklamasi jumla mazmunini aniqlashga ham, o'xshatishga ham, qiyoslashga ham xizmat qiladi. Xuddi yuklamasi aniqlash mazmunida qo'llanadi: Osmonga qittak ham bulut yo'q. Shamol ham esmaydi. Bak tagidan ko'tarilayotgan ko'm-ko'k tutun buralmay tikka osmonga o'rlayapti. Xuddi so'ngsiz osmonga kulrang yumshoq ustun tirab qo'yganga o'xshaydi. (Said Ahmat, Ufq,438-bet); U o'zi mansub bo'lgan so'zning ma'nosini aniqlab ko'rsatishda naq yuklamasi va aynan so'zi bilan ma'nodosh bo'la oladi. 1) aynan bilan: Ehtimol, oradan ikki oycha o'tib Sepkilli xola tilla tish qo'ydirmaganida,

buning ustiga xuddi o'sha kuni ammam yana kelib qolmaganida, zirak ham, bu

3. Расулов Р. Ўзбек тилида ёрдамчи сўзларнинг семантик-грамматик хусусиятлари. – Т.: Фан, 1983. –Б.70.

gaplar ham unutilib ketgan bo'lardi.(O'tkir.Hoshimov,Dunyoni ishlari,48-bet); Qiyoslang: Ehtimol, oradan ikki oycha o'tib Sepkilli xola tilla tish qo'ydirmaganida, buning ustiga aynan o'sha kuni ammam yana kelib qolmaganida, zirak ham, bu gaplar ham unutilib ketgan bo'lardi. 2) naq bilan: Uning moli xuddi magazindagi singari qat'iy narx bilan sotiladi. (O'tkir.Hoshimov,Dunyoni ishlari,74-bet). Qiyoslang: Uning moli naq magazindagi singari qat'iy narx bilan sotiladi.

Ushbu yuklama qiyoslash, chog'ishtirish, o'xshatish ma'nolarini ifodalab kelganda quyidagi yordamchi vositalar bilan ma'nodoshlik hosil qila oladi. 1) go'yo bilan: Akam bilan ketma-ket xuddi quvlagandek, qop-qora lo'li xotin kirib keldi. (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi, 142-bet); Qiyoslang: Akam bilan ketma-ket go'yo quvlagandek, qop-qora lo'li xotin kirib keldi. 2) go'yoki bilan: Endi qo'rquv o'rnini allaqanday qiziqish egalladi-yu, angrayib qoldim.

Hammamiz xuddi mo'jiza kutgandek qotib qolgandik.(O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi, 234-bet); Qiyoslang: Endi qo'rquv o'rnini allaqanday qiziqish egalladiyu angrayib qoldim. Hammamiz go'yoki mo'jiza kutgandek qotib qolgandik.

3) ayni, aynan bilan: Qarasam, xuddi o'zim o'ylagandek: o'rindiqning yarmi loyga belanibdi.; Xuddi shu chiybaxmal zamonlar o'tishi bilan butun Yevropaga moda bo'lishini dadam xayoliga ham keltirmagan bo'lsa kerak. Uning uchun chiyduxoba «kambag'albop kiyim» edi, xolos. (O'.Hoshimov). Qiyoslang: Qarasam, aynan o'zim o'ylagandek: o'rindiqning yarmi loyga belanibdi.; Ayni shu chiybaxmal zamonlar o'tishi bilan butun Yevropaga moda bo'lishini dadam xayoliga ham keltirmagan bo'lsa kerak. Uning uchun chiyduxoba «kambag'albop kiyim» edi, xolos. 4) aftidan so'zi bilan: Oyim ham toliqib ketdi shekilli, nuqul atrofga javdiraydi. — Dallol topmasak bo'lmaydi shekilli, o'g'lim, — dedi ruhi tushib. Xuddi shuni kutib turgandek, telpaging quloqchinini kuya yegan, paxtali shimining tizzasigacha go'ng bo'lib ketgan kishi paydo bo'ldi. (O'.Hoshimov). Qiyoslang: Oyim ham toliqib ketdi shekilli, nuqul atrofga javdiraydi. — Dallol topmasak bo'lmaydi shekilli, o'g'lim, — dedi ruhi tushib. Aftidan shuni kutib turgandek, telpaging quloqchinini kuya yegan, paxtali shimining tizzasigacha go'ng bo'lib ketgan kishi paydo bo'ldi.

5) misli, misoli bilan: Akamning allaqaysi kitobida olti qo'lli odamning rasmini ko'rgan edim. G'irashirada jiydalar xuddi o'shanaqa vahimali maxluqlardek qing'ir-qiyshiq «qo'llari»ni cho'zib turishar, yugurgan sayin ustimga bostirib kelayotganga o'xshar edi. Qiyoslang: Akamning allaqaysi kitobida olti qo'lli odamning rasmini ko'rgan edim. G'ira-shirada jiydalar misoli o'shanaqa vahimali maxluqlardek qing'ir-qiyshiq «qo'llari»ni cho'zib turishar, yugurgan sayin ustimga bostirib kelayotganga o'xshar edi.; Tarzanni bilasizmi? misli maymundek daraxtdan-daraxtga sakraydi.

Bu kabi yuklamalar ma'nodoshlikini yana davom ettirish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tilshunoslikda turli pragmatik ma'no ifodalashda yuklamalarning o'rni nihoyatda katta. Hozirgi o'zbek tilida yuklamalar eng faol grammatik vositalardan hisoblanadi. Qolgan so'z turkumlari yuklama bajargan vazifani mutlaqo bajara olmaydi. Yuklamalarning stilistikasi ham ancha murakkab. Yuklamalar turli pragmatik ma'nolarni ifodalab kelgani, o'zi aloqador bo'lgan birlikka turli qo'shimcha ma'no yuklab kelgani uchun ham badiiy va publitsistik uslublarda ancha faol ishlatiladi. Rasmiy uslubda barcha emotsional-ekspirisiv ma'no aks ettiruvchi birliklar nofaol bo'lgani uchun yuklamalarning ham ishlatilishi qisman cheklanganligini ko'rishimiz mumkin

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. . Пардаев А.Б. Тил тизимида ёрдамчи сўзлар. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2011. 117-134-бетлар
2. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R. Raupova L.R., Qurbonova M.M, Abuzalova M.Q., Yo'ldosheva D.N. Hozirgi o'zbek tili. –T.: Fan, 2010, -B. 549.
3. Расулов Р. Ўзбек тилида ёрдамчи сўзларнинг семантик-грамматик хусусиятлари. – Т.: Фан, 1983. –Б.112.
4. Ўзбек тили грамматикаси. Икки томлик. I-том. Морфология.- Т.: Фан, 1975. –Б.609.